



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

HOKIMIYAT BO'LINISH TIZIMIGA PARADIGMAL YONDASHUVDA G'ARB FALSAFASI

Rustamov Xusan Abdusalomovich

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Tel: 97-275-80-99 e-mail: rustamov.husan@inbox.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat hokimiyatining bo'linishi tizimiga falsafiy jihatdan Yevropa davlatlaridan Germaniya va Fransiya davlatlari modellari, ularning o'zaro munosabatlari va bir-biriga ta'sir doirasi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: davlat hokimiyati, aksiologik mezonlar, federal bosqich, simmetrik federatsiya, fuqarolar ishtiroki.

Mamlakatning rivojlanishida davlat hokimiyati nafaqat muhim o'rinni tutadi, balki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan davlat hokimiyatining qaysi yo'nalishda, kimlar tomonidan va qay yo'sinda amalga oshirilishi ko'p jihatdan mamlakat va aholi taqdirini belgilab kelgan. Buni insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy tajribasi yaqqol tasdiqlaydi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida belgilangan muhim konstitutsiyaviy prinsipda – “O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipiga asoslanadi”[1]- deb qat'iy belgilab qo'yilgan.

Hokimiyat bo'linishi tizimining namunaviy xususiyatlari va aksiologik mezonlari Yevropa davlatlaridan – Germaniya va Fransiya modellarining ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida yetarli darajada kuzatib borilmoqda.

G'arb davlatlaridan Germaniyani oladigan bo'lsak, bu davlatda fuqarolik jamiyatni va davlat hokimiyati bo'linishi tizimining o'zaro bog'liq modeliga ham ko'plab asarlar bag'ishlangan.

1949-yilda qabul qilingan Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasining birinchi bandida konstitutsiyaviy tuzumning oliv ne'mati sifatida insonning qadr-qimmatini hurmat qilish asosiy qoida sifatida belgilangan: “Insonning qadr-qimmati daxlsizdir. Uni himoya qilish va hurmat qilish – davlat hokimiyatining burchidir”. Asosiy qonunda Germaniya huquqiy va ijtimoiy davlat sifatida mustahkamlangan. Mazkur asosiy konstitutsiyaviy prinsiplar “abadiy



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xususiyat”ga ega. “Butun davlat hokimiyati xalqqa tayanadi, - deyilgan GFRning Asosiy qonuning 20(2)-bandida. U xalq tomonidan saylovlar va ovoz berish, shuningdek qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining maxsus organlari orqali amalga oshiriladi”[2].

Asosiy qonun hokimiyatning uchta tarmog‘i organlarini ajratgan holda, ularning vazifalarini birlashtirish, bir-birining ishiga aralashish va boshqalarni ta’qiqlaydi. Aralashmaslik prinsipi ayniqsa adliya organlariga nisbatan qat’iy tatbiq qilingan.

Fuqarolik jamiyati bilan bog‘liq hokimiyat bo‘linishing zamonaviy nemis tizimi Germaniyaning federativ tuzumiga asoslangan. Bu davlatning siyosiy tizimi ikki bosqichga - davlat miqyosidagi umumiylar qarorlar qabul qilinadigan yuqori - federal bosqich hamda federal yerlar (jami 16 ta) vazifalari hal etiladigan quyi mintaqaviy bosqichga bo‘linishini anglatadi. Har ikki hokimiyat bosqichining har biri o‘zining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ega. Yerlar yuridik jihatdan bir xil maqomga ega bo‘lib, bu hol hokimiyatlarning gorizontal va vertikal bo‘linishini tasdiqlaydi, Germaniyani simmetrik federatsiya sifatida ifoda etadi. Germaniyada siyosiy tizimni ba’zan “yashirin” federalizm deb atashadi; bundan tashqari, mamlakatda federal konstitutsiyaviy sudning mavqeい juda kuchli va hakozolar.

Germaniyalik zamonaviy faylasuflar uchun “fuqarolik jamiyati” atamasi Gegelga emas, balki shotlandiyalik faylasuf, tarixchi, Edinburg universitetining falsafa bo‘yicha professori, Adam Smitning ustozи, “zamonaviy jamiyatshunoslik asoschisi” Adam Fergyusonga (1723-1816 yy.), uning mashhur “Fuqarolik jamiyati tarixi ocherki” asariga, “erkin davlat - bu boshqariladigan erkinlik demakdir” (“Essay on the history of the civil society”) (1767), “mustaqil davlat yaxshi boshqariladigan erkinlik”, “yetakchining zaifligi yoki nazoratsiz amalga oshiriladigan har qanday hokimiyat harbiy hukumat tuzumiga, pirovard natijada istibdodga olib keladi”, “barcha shakldagi ijtimoiy tuzilmalar inson faoliyatining samarasidir”, “muvaqqiyatli tijorat jamiyati siyosiy korruptsiyaga olib keladi”[3] degan va boshqa farazlariga borib taqaladi.

Zamonaviy fuqarolik jamiyati – bu fuqarolarning ko‘p yoki kamchilikni tashkil etadigan mustaqil guruhlari faoliyati, alohida yoki jamoaviy erkinlik manbai, demokratik davlat asosidir[4] “Fuqarolik jamiyati”ni “fuqarolar ishtiroki”ga qarab farqlash kerak – “fuqarolar ishtiroki”, birinchidan, fuqarolarning davlat, bozor va oila hal etishga qodir bo‘lmagan ba’zi ahamiyatsiz yoki muhim mummolarni hal etish tarafdoi bo‘lib maydonga chiqishi; ikkinchidan, fuqarolarning mamlakat va bozor boshqaruviga siyosiy ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutadi[5].



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hokimiyatning bo‘linish tizimi bo‘yicha Fransiya modeliga ham ko‘plab asarlar bag‘ishlangan.

Ma’lumki, Fransiya Beshinchi respublika davridan buyon (1958-yildan boshlab) - suveren unitar demokratik respublika hisoblanadi. Konstitutsiya boshqaruvning respublika prezidentlik-parlament shaklini belgilaydi. Fransiya, Yevropaning aksariyat demokratik mamlakatlaridan farqli o‘laroq, hali ham markazlashgan davlat hisoblanadi. XX asrning 80-yillari boshida bu yerda davlat hokimiyatini umumiylashtirish siyosatidan markazdan soqit qilish siyosatiga bosqichma-bosqich ravishda o‘tildi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv tizimini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Mamlakat prezidenti sud hokimiyati mustaqilligining kafolati hisoblanadi, sudyalarining maqomi qonun bilan belgilanadi va ular almashtirilmaydi. Fransiyaning sud tizimi ko‘p pog‘onali bo‘lib, uni ikki tarmoqqa – sud tizimi va ma’muriy sudlar tizimiga ajratish mumkin.

Fransiyada hayotga tatbiq etilgan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimining roli va ahamiyatini oshirish siyosati katta xalqaro ahamiyatga ega. Bu siyosat fuqarolik jamiyatni va hokimiyatning yetukligiga to‘liq ishonch hosil qilgan holda, bosqichma-bosqich va kompleks ravishda davlat nazorati ostida amalga oshirildi. Aholi tomonidan saylangan organlar nafaqat davlat hokimiyati tizimining izdan chiqishiga yo‘l qo‘ymadi, balki aholiga aynilsa maishiy va kommunal sohada xizmat ko‘rsatishni yaxshiladi, fuqarolik institutlarining yuksak salohiyatidan foydalanib, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga qator vakolatlarni topshirish imkonini berdi. Mazkur siyosat, bir tomonidan, sezilarli ravishda davlat moliya resurslarini taqdim qilish, ikkinchi tomonidan esa o‘zini o‘zi boshqarish organlari rahbarlarining kasbiy bilimlarini oshirish bilan birga kechdi.

Umuman olganda, bugungi kunda hokimiyatning bo‘linish nazariyasining fransiyalik asoschilari qarashlariga o‘zgaruvchan siyosat tomonidan putur yetkazilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent - 2023 y.
<https://lex.uz/docs/6445145>
2. Основной закон Федеративной Республики Германия от 23 мая 1949 г. – Москва: Российская государственная библиотека, 1997.
3. Hill L., McCarthy P. Hume, Smith and Ferguson: Friendship in commercial

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- society // Critical Review of International Social and Political Philosophy. – Vol.2. - Issue 4. - December 1999. –PP. 33-49.
4. Sorensen R. Fame as the forgotten philosopher: meditations on the headstone of Adam Ferguson // Philosophy. - 2002. - Vol.77. – No.1. – PP.109-114.
 5. Anheier H., Toepler S. International Encyclopedia of Civil Society. – New York: Springer-Verlag; New York Inc., 2010.